IJRO ETISH JARAYONIDA BILIM VA KO‘NIKMALARNI O‘ZLASHTIRISH

Maxammadalieva Dilnavoz
Jalilov Abdukaxxor
Respublika musiqa va san’at kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijro etish jarayonida bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirish haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: solofedjio, akkord.

Bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish – o‘rganishning asosiy mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonini mukammal yo‘lga qo‘yishda bilim katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu vazifa mashg‘ulot tartibini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan amalga oshirilishi mumkin. Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish, kerakli ko‘nikmalarni puxta egallash talaba uchun muhimdir.

«Bilim» deganda, biz ma’lum bir tushuncha, so‘z, biron-bir mavzu va nazariyaning ma’nosini tushunish va uni o‘zlashtirishni anglaymiz. Asosiy maqsad fanni to‘liq o‘rganishga qaratiladi. Bilimlarning to‘liq bo‘lishiga erishish bilan ijro etishni puxta o‘rganish mumkin bo‘ladi. Mashg‘ulot jarayonida bilimni to‘laqonli yoki mukammal bo‘lmayotganligi muntazam nazorat qilinishi lozim. Bilimlarni keng ma’lumotlar bilan boyitib, imkon qadar har bir xulosalarni misollar bilan o‘zining fikrlash doirasida o‘rganib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shundagina bilimlar ma’nosini chuqur anglash mumkin bo‘ladi. Bilimlarning mukammal ekanligi, ularning amalda qanday qo‘llanilayotgani bilan aniqlanadi. Bilimlarni amalda qo‘llash bilan ko‘nikmalar hosil bo‘ladi. Ma’lumki, qobiliyat har bir insonga turlicha in’om etilgan. Muayyan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda shaxsning tug‘ma qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, bularning shakllanishini ongli harakat bilan hal etish mumkin bo‘ladi.

Demak, mehnat yordamida yangi ko‘nikmalar hosil qilish imkoniyati bor. Bu vaziyat o‘rganish jarayonini unumli tashkil etishda yordam beradi. *Ko‘nikma* – puxta o‘zlashtirilib, odatiy tarzda doimiy takrorlay olinadigan faoliyatdir. Ijrochilikda ko‘nikma faoliyatning asosiy tarkibini tashkil etadi va hal qiluvchiahamiyatgaegabo‘ladi.

Mukammal darajada, ya’ni to‘g‘ri o‘zlashtirilgan ko‘nikma ijro etishda harakatlarni bemalol, erkin bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa har bir ijrochi oldidagi vazifalarni talab darajasida hal etishga, ya’ni musiqa asarlarining to‘laqonli ijrosiga erishishga imkon yaratadi. Ko‘pincha ijro etishdagi ko‘nikmalarning dastlabki ta’lim jarayonida noto‘g‘ri o‘zlashtirilganligini kuzatamiz. Buning natijasida berilgan vazifa vatopshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishi qiyinlashadi.

Ijro etishni o‘rganish jarayonida amaliy bilimlar va ko‘nikmalarni nazariy jihatdan tahlil qila olish darajalari nazorat qilinishi kerak. Ba’zi hollarda talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligi orasida tafovut mavjudligi kuzatiladi, natijada ular o‘zlashtirgan ijro ko‘nikmalarini nazariy jihatdan asoslay olmaydilar. Amalga oshirilayotgan amaliy va nazariy ko‘nikmalar nimaga asoslanayotgani nazariy ta’lim asosida o‘rganilishi lozim. Shundagina nazariy va amaliy ko‘nikmalar bir-birini to‘ldirib boradi, bu esa o‘z o‘rnida talabaga amaliy tarzda bajarayotgan ijrosini nazariy jihatdan

tushuntirib berish imkonini beradi. Odatda, bilimni egallashda talabalar o‘qituvchi yordamida materiallarni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchi talabaning barcha ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yaqindan yordam berishi lozim bo‘ladi. Ijrochilik sohasida bu vazifalar bevosita tarbiyachi ishtirokida amalga oshirilishi muqarrarligini qayd etish lozim. Har bir o‘qituvchidan talabalarning psixologiyasini chuqur o‘rganish, har bir talabaga alohida, uning zehni, musiqiy qobiliyati namoyon bo‘lishiga qarab munosabatda bo‘lish talab etiladi. Chunki ba’zilari o‘rtacha qobiliyatga ega bo‘lsalar-da, mehnat orqali tezda samarali natijalarga erishishlari mumkin. O‘rgatish jarayonining muhim omili, musiqachi-ijrochidan talab etiladigan asosiy ko‘nikmalardan biri – xotira qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Chunki bir necha va turli janrdagi asarlardan tuzilgan dasturni ijro etish uchun ijrochida albatta xotira malakalari shakllangan bo‘lishi zarur. Buning uchun mashg‘ulot jarayonida xotira malakalarini o‘stirish maqsadida maxsus uslublardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu nazariy va amaliy tarzda olib borilishi mumkin. Nazariy

yo‘nalishda musiqa nazariyasi fani bo‘yicha (*solofedjio fanida o‘tiladigan materiallarni – akkord va intervallarni eshitib aniqlash*) hamda amaliy yo‘nalishda oldingi ijro etilgan asarlarni takrorlash usuli qo‘llanishi mumkin. Bu jarayon qat’iy talab asosida olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Talaba materialni puxta o‘zlashtirishi, darslarda olayotgan bilimini natijali bo‘layotganini his qilishi bilan uning egallayotgan sohasiga munosabati yaxshilanib,qiziqishi ortib boradi. Dars tushunarli va qiziqarli bo‘lganda esa bilimga havasi yanada kuchayadi, mahoratli ijrochi bo‘lishga intiladi.

Ijrochilikda turli ijro ko‘nikmalarini puxta egallash uchun maqsadli va tizimli ravishda tuzilgan mashqlarni muntazam chalish va muayyan bilimlarni o‘zlashtirish talab etiladi. O‘quv materiallarini doimiy talab darajasida o‘zlashtirishda ularni har tomonlama rivojlanishga jalb etish, ya’ni nafaqat muntazam takrorlash usuli bilan amalga oshiriladigan ko‘nikmalarni shakllantirish, balki bevosida aqliy faollikka o‘rgatish zarur bo‘ladi.

Mukammal ijrochini tarbiyalash uchun ko‘nikma va bilimlarni o‘zlashtirish barobar olib borilishi kerak. Chunki muvaffaqiyatga erishishda bu ikki tomonlar birbirini to‘ldirib boradi. Yangi bilimlar yordamida ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan talaba ijrochilikda uchraydigan turli ijro uslublarining qonuniy asoslarini ochish imkoniyatiga ega bo‘ladi va uni shaxsiy tajribasi asosida his eta boshlaydi.Bu o‘z o‘rnida unga ijrochilikda mavjud bo‘lgan yangi bilimlarni oson o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Har bir o‘qituvchi, avvalambor, o‘zi ijro ko‘nikmalarini mukammal bilgan holda cholg‘uda ijro etish xususiyatlari, ijro ko‘nikmalarini talabalarda takomillashtirilib borishi lozim.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1. “Xalq cholg’ulari” B. Mirpayozov Toshkent 2019 yil
2. www.ziyo.com